

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TA'LIMY O'ZLASHTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI

Kamolova Shirinoy Usarovna

JDPU umumiy psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

Jasurova Nazira Xasan qizi

Pedagogika va psixologiya mutahassisligi 2-bosqich magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqola bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'limiy o'zlashtirishning mavjud imkoniyatlari masalasiga qaratilgan. Shuningdek Interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarda ta'limiy o'zlashtirish jarayoni masalalari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Xissiyot, emotsiya, emotsional barqarorlik, xarakter, tarbiya, axloq, axloqiy pedagog, tafakkur, dunyoqarash, milliy-madaniyat, urf-odat, odob-axloq, axloqiy fazilat.*

Respublikamizda xalq ta'limi sohasida ta'lim va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda matematik iqtidor va layoqatga ega, xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalari mujassamlashgan professional pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan 2030 yilgacha mo'ljallangan ta'lim muammolari bo'yicha butunjahon Forumida qabul qilingan konsepsiyada "...barcha uchun butun hayoti davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish..."¹⁰⁸ dolzarb vazifa etib belgilanganligi muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich ta'lim tizimida bilishga xos tasavvurlarni shakllantirish asosida o'quvchilarning ta'limiy o'zlashtirish imkoniyatlarini takomillashtirishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoitini tubdan yaxshilash, ta'lim sifatini oshirishning xorijiy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Tarbiya ta'lim bilan uyg'un, ammo o'ziga xos shart-sharoitni, uzluksizlikni talab qiluvchi soha. Ta'lim – bilimdon yoshlarni, tarbiya – irodasi kuchli, vatanga sodiq, tadbirkor, mehr-oqibatli yoshlarni yetishtirib beradi.

O'quv faoliyati boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxs xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Boshlang'ich sinfda o'quvchi

¹⁰⁸Incheon Declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all [Word Education Forum, 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea].

shaxsining shakllanishi davom etadi. O'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi. Buning natijasida o'quvchining o'z-o'zidan oilasi, o'qiyotgan sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin.

Boshlang'ich sinfga (6-10 yosh) kelib o'quvchida shaxsning bir qator fazilatlari va xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Jumladan, qat'iylik; nisbiy mustaqillik; o'z oldiga maqsad qo'ya olish; xulq-atvorni ijtimoiy jamoatchilik nuqtai-nazardan baholashga intilish; va'daga sadoqat; kattalarni hurmat qilish; burch va javobgarlik; o'z his-tuyg'usi va ichki kechinmalarini boshqarish uquviga egalik; o'z-o'ziga, o'z qilmishlari, nojo'ya xatti-harakatlari, o'rinsiz luqma tashlaganligi, ixtiyorsiz o'shshayganligi uchun baholi qudrat o'z munosabatini bildirish hislari kabilar. Shuningdek, ko'zlagan maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik kabi sifatlar ham shakllanadi.

O'quv faoliyati boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxs xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Boshlang'ich sinfdan o'quvchi shaxsining shakllanishi davom etadi. O'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi. Buning natijasida o'quvchining o'z-o'zidan oilasi, o'qiyotgan sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin.

Boshlang'ich sinfga (6-10 yosh) kelib o'quvchida shaxsning bir qator fazilatlari va xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Jumladan, qat'iylik; nisbiy mustaqillik; o'z oldiga maqsad qo'ya olish; xulq-atvorni ijtimoiy jamoatchilik nuqtai-nazardan baholashga intilish; va'daga sadoqat; kattalarni hurmat qilish; burch va javobgarlik; o'z his-tuyg'usi va ichki kechinmalarini boshqarish uquviga egalik; o'z-o'ziga, o'z qilmishlari, nojo'ya xatti-harakatlari, o'rinsiz luqma tashlaganligi, ixtiyorsiz o'shshayganligi uchun baholi qudrat o'z munosabatini bildirish hislari kabilar. Shuningdek, ko'zlagan maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik kabi sifatlar ham shakllanadi.

Ixtiyoriy ravishda harakat qilish layoqati butun boshlang'ich sinf o'quvchilik davri davomida shakllanadi. Psixik faoliyatning oliy shakli singari ixtiyoriy xatti-harakatlar ular shakllanishining asosiy qonuniga bo'ysunadi. Unga ko'ra yangi xatti-harakatlar, avvalo kattalar bilan bo'lgan umumiy faoliyatda yuzaga kelib, o'quvchi shunday xatti-harakatlarni tashkil etish imkoniyatlarini o'rganadi va shundan keyingina u o'quvchining individual

xatti-harakat usuliga aylanadi. Kattalar o'quvchilarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanish qoidalariga o'rgatadilar.

Demak, oilada o'quvchi u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilik davri bu ijobiy o'zgarishlar va yangilanishlar davridir. Shuning uchun ham rivojlanishning shu bosqichida har bir o'quvchi erishgan muvafaqqiyatlar darajasi nihoyatda muhim hisoblanadi. Agar shu yoshda o'quvchi bilish, o'rganish quvonchini his etmasa, o'qish malakalarini egallay olmasa, do'stlashishni bilmasa, o'ziga nisbatan, o'z imkoniyat va layoqatlariga nisbatan ishonchli bo'la olmasa, bu ishlarni kelgusida amalga oshirish qiyinroq bo'lib, o'quvchida yuqori ruhiy va jismoniy zo'riqish paydo bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida hali boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'liq shakllanib ulgurmagan qadriyatlar tizimining tarkib topishi bevosita o'qituvchining shaxsiy namunasi va pedagogik ta'siri tufayli maqsadli shakllantirish imkoniyatlari mavjud. Demak, o'quvchi maktabga kelguniga qadar ham unda ma'lum qadriyatlar shakllangan bo'ladi, maktabga kelgandan so'ng esa, DTS asosida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni ta'sirida ulardagi qadriyatlar to'g'ri yo'naltiriladi, kengayadi va muayyan qadriyatlar tizimining shakllanishiga zamin yaratiladi.

Zamonaviy pedagogika tamoyili insonparvarlik xarakteriga ega bo'lib, ta'limning asosiy maqsadi insonda mavjud ichki imkoniyatlarni faollashtirish, o'z-o'zini faollashtirishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'quv faoliyati sub'ektiga aylanib, unda faol va ijodiy pozitsiyani egallaydi, o'zining yangi potensial imkoniyatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday faoliyat turi natijasida o'quvchining o'zi va taraqqiyot darajasi o'zgaradi. Shuning uchun o'quv faoliyatini tashkil etish boshlang'ich ta'limning alohida ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlaridan biri hisoblanadi. O'zini nazorat qilish harakatlari o'quvchi o'quv faoliyatining muhim komponenti sifatida ularning individual shakllantirilgan maqsadlariga nisbatan ta'limiy natijalari o'zlari tomonidan reflektiv yuzaga chiqadi va baholanadi.

Har bir dars turining pedagogik maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi o'zining intellektual salohiyatini safarbar etishi, ilg'or pedagogik tajribadan foydalanishi va nihoyat, metodni tanlash haqiqiy ijodiy aktga aylanishi lozim. O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlash –bu ularning o'zaro almashinuvini (chog'ishtirishni) vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvofiqlashtirish demakdir. Natijada o'quvchilarning aqliy va amaliy faoliyatining yuqori darajasini yaratishga sharoit yaratiladi. Interfaol metod nechog'lik o'qitishning muayyan aktini

tavsiflasi, u shunchalik ko'p o'qitish samarasini ta'minlaydi. Masalan, pedagog asosiy metod sifatida "munozara"ni tanlaydi va uni o'tkazish mantiqini quradi, shuningdek munozara davomida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun "aqliy hujum" dan foydalanadi, bu esa kutilgan samarani beradi. Interfaol o'qitish metodlarini tanlashning keyingi muhim sharti ularni eng maqbul chog'ishtirish mezonlarini hisobga olishni taqazo etadi.

Yakka tartibda yoki kichik guruhlar bilan ish olib borishni xohlagan ijodkor o'qituvchiga "Menyu" metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda kichik guruh (yoki o'quvchi)ga aniq topshiriq beriladi. Misol, "O'zbekiston fuqarolarining huquqlari" tasnifi xilma-xil, o'qituvchi har bir guruh uchun alohida topshiriq tayyorlaydi.

1. Konstitutsiyaviy huquqlar.
2. Ma'muriy huquq asoslari.
3. Fuqarolik huquqi asoslari.
4. Mehnat huquqi asoslari.
5. Ekologik huquqlari asoslari.

Har bir guruh topshiriq oladi va 3 minut davomida muhokama qilishadi, so'ngra har bir guruhdan bittadan vakil o'qituvchi stoliga kelishadi va tayyor "Menyu"ni olib qaytishadi. Bu uzun qirg'ilgan qog'ozlar –"Tillar " bo'lib, ularda xilma-xil huquq normalari bayon qilingan bo'ladi. Guruh vakili tillardan tanlab oladi va o'z guruhiga olib keladi, keyin boshqa o'quvchi shu ishni bajaradi va zaruriy materiallar yig'ilguncha bu holat davom etadi. 10 minut davomida topshiriq muhokama qilinadi va chizmaviylashtiriladi. Bu jadval qo'lda tayyorlanishi ham mumkin yoki javoblar og'zaki ham bo'lishi mumkin. Boshqa guruh vakillari savollar berishadi, o'qituvchi esa guruh ishlarini, sardor faolitini baholab beradi.

Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida o'quvchilarning, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limiy o'zlashtirish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun bir qator metodikalardan foydalanishadi. Biz ham o'z navbatida turli xil metodikalardan tizimli va samarali foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zlashtirish imkoniyatlarini shakllantirishning aniqlangan shartlarini qo'llashning samarali ekanligi namoyon bo'ldi, bu esa tadqiqotning amaliy ahamiyatini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. nom. diss. – T.: Buxoro davlat universiteti, 2002. –276 b.
2. Nishonova Z.T. Ta'lim jarayonida mustaqil tafakkur rivojlanishi. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T.: 2005. - 9-10 b.
3. Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning nomzodi. ... diss. – T., - 36b.